



**“DEVONU LUG‘OTIT-TURK” VA O‘ZBEK SHEVALARI:
O‘XSHASHLIK VA FARQLAR**

Muhsinjonova Shirinoy Asliddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU 1-kurs tayanch doktoranti

muhsinjonovashirinoy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asaridagi leksik birliklarning hozirgi o‘zbek shevasidagi o‘zaro muqobillari borasidagi fikrlar o‘rin olgan. Qarluq, qipchoq va o‘g‘uz shevalarida asar leksikasiga xos ayrim birliklar ma’lum darajada saqlanib qolgan bo‘lib, ularning ba’zilarida tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarish kuzatilsa, ayrimlarida deyarli tadrijiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmaydi.

Kalit so‘zlar: “Devonu lug‘otit-turk”, o‘zbek shevalari, tarixiy taraqqiyot, o‘xshashlik va farqlar.

Abstract: This thesis contains ideas about the alternatives of lexical units in Mahmud Kashgari's work “Devonu lug‘otit-turk” in the modern Uzbek dialect. In the Qarluq, Kipchak and Oghuz dialects, some units characteristic of the lexicon of the work have been preserved to a certain extent, and in some of them changes are observed in the process of historical development, while in others there are almost no gradual changes.

Key words: “Devonu lug‘otit-turk”, Uzbek dialects, historical development, similarities and differences.



Абстракт: В данной диссертации изложены мысли Махмуда Кошгари об альтернативах лексических единиц современного узбекского диалекта в произведении “Девону луготит-тюрк”. В карлукском, кыпчакском и огузском диалектах в определенной степени сохранились отдельные единицы лексики произведения.

Ключевые слова: “Девону луготит-тюрк”, узбекские диалекты, историческое развитие, сходства и различия.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asari XI asrga oid eski turkiy tilda bitilgan tarixiy yozma yodgorlik hisoblanib, uning tarkibidan o‘rin olgan leksik qatlam bugungi kunga qadar ma‘lum darajada saqlanib qolgan. Mahmud Koshg‘ariy o‘z asari haqida quyidagi fikrlarni ilgari suradi: “Men bu kitobni maxsus so‘zlar, sajlar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Men iste‘moldagi so‘zlarnigina berdim. So‘ngra men har bir qabilaga mansub so‘zlarning yasalish xususiyatlarini va qanday qo‘llanishini qisqacha izohlab ko‘rsatish uchun alohida yo‘l tutdim. Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelingan she‘rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llanadigan hikmatli so‘zlaridan, maqollar keltirdim”.

“Devon”da XI asrda yashagan turkiy qavmlar nutqiga xos birliklar o‘rin olgan bo‘lib, ular bugungi kunga qadar turli shakllarda yetib kelgan. Ana shu jihatlarni e‘tiborga olgan holda ularni uch guruhga tasniflash maqsadga muvofiq:

- a) arxaizmlar – shakli o‘zgarib, mazmuni saqlangan so‘zlar;
- b) istorizmlar – shakli ham, mazmuni ham iste‘molda bo‘lmagan so‘zlar,
- c) XI asrdan bugungi kunga qadar shakli ham, mazmuni ham aslicha yoki qisman o‘zgargan holda(asosan, shaklda) saqlanib qolgan leksik birliklar.



Demak, “Devon”dan o‘rin olgan birliklarning til tadqiqi yuqoridagi tasnif asosida amalga oshirilib, ularning hozirgi o‘zbek shevalarida aks etishi borasidagi fikrlar ushbu tezis obyekti sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek shevalari O‘zbekiston hududida yashovchi aholining nutqiga xos bo‘lib, uning qarluq, qipchoq va o‘g‘uz shakllari mavjud. “Devonu lug‘otit-turk” asaridagi leksik ifodalar o‘zbek shevalariga shakl va mazmun jihatdan uyg‘un ekanligining guvohi bo‘lamiz:

“Devon”dan joy olgan taom nomlarining azuq(I, 46) ko‘rinishiga ega ekanligi haqida asarda qayd etilgan. Bundan tashqari, ushbu so‘z ishtirok etgan birliklar ham asardan o‘rin olgan:

Azuq – oziq-ovqat(I, 97).

Azuqlandí - oziqli bo‘ldi(I, 289).

Azuqluq I – oziqlik, ovqatlik(I, 166)

Azuqluq II – oziq-ovqat(I, 272)

Azuqlux – azuqlux er – ozig‘i bor, ovqati bor kishi(I, 164).

Ushbu so‘z bugungi kunda “ozig” shaklida saqlanib qolgan bo‘lib, uning tarixiy rivojlanishini quyidagicha aks ettirish mumkin: azuq<ozig. Ozig so‘zi o‘zbek shevalari hamda hozirgi o‘zbek adabiy tilida xuddi shu shaklda saqlanib qolgan.

“Devon”da aš¹ leksemasining “taom” ma’nosini ifodalashi yaqqol aks etgan. Aš so‘zi ishlatilgan dastlabki manba “Oltin yoruq” hisoblanadi: sočig yagliğ aš – mazali, yog‘li ovqat². Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari ham aš leksemasi yordamida shakllantirilgan birliklarga boy sanaladi: aš basčisi – bosh oshpaz, aš suv – taom, aš tat-taomni totmoq va boshqalar. “At-tuhfa”da “taom” ifodasi aš³ termini orqali anglashilgan.

¹ Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit-turk. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2017. – B 21.

² Дадабоев Х. “Девону луғотит-турк”нинг тил хусусиятлари. -Т.:ТДШИ, 2017. -Б. 133.

³ Attuhfatuz zakiyatu fillug‘atit turkiya. – Toshkent: Fan, 1968. – B 178.



Ushbu leksik birlikning bugungi kundagi ko‘rinishi – osh hisoblanadi. Osh leksemasi ikki xil ma’noga ega:

1. Oziq-ovqat.
2. Palov, osh.

Aytish mumkinki, ushbu so‘zning fonetik xususiyatlari aynan qipchoq shevasida saqlanib qolgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida uchraydigan birliklarning hozirgi o‘zbek shevalarida saqlanib qolishi ularning tarixiy taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. “Devon”ga xos so‘zlarning shevalardagi semantikasi yoki fonetik formasining uchrashi ushbu mavzuda tadqiqot olib borish uchun keng zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. I – III. – Тошкент: Фан, 1960-1963.
2. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. III. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. М. Муталлибов. – Тошкент: ЎзФА нашриёти. 1963.
3. Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит-турк”нинг тил хусусиятлари–Тошкент: ТДШИ, 2017
4. Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.
5. Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.